



## ONA TILI DARSLARIDA KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRUCHI MATNLARNING AHAMIYATI XUSUSIDA

Xidirova Gavhar

Qarshi davlat universiteti magistri

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p1-20>

### ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 06<sup>th</sup> February 2023

Online: 07<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

Matn, yozuv, ta'lim, lug'at,  
milliy mentalitet, darslik.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ona tili darslarida kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi matnlarning ahamiyati xususida fikr-mulohazalar bildirildi.*

Ma'lumki, globallashuv jarayonida ona tili tadrisini mazmunli tashkil etish va darsliklar kontenti mundarijasi masalasi kun tartibida turibdi. Milliy mintalitetdan kelib chiqib, bugungi yoshlar tafakuriga yo'l ona tilining jozibador ta'siri, kognitiv motivatsiyasi asosida shakllantirilish talab etiladi. Aytish mumkinki, shu jarayonda ona tili darslari uchun kommunikativ-pragmatik yondashuvli mashqlarning o'rni muhim bo'lib, samaradorlik ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi shaxslarning zamonaviy o'quv material kontenti bilan ta'minlanishidan kelib chiqadi.

Ona tili ta'limi o'quvchilar bilimlarini yuzaga chiqishida, og'zaki yoki yozma shaklda bo'lsa ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tili haqida qabul qilingan dastur va qonunlarning mazmun-mohiyati ham shu bilan belgilanadiki, maktabda ona tili o'qitishning bosh maqsadi adabiy tilda go'zal va ravon so'zlashish va shu fikrni benuqson yozuvda ifodalashni o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun esa o'quvchilarning turli o'quv lug'atlari bilan doimiy ishlab borishi, maktab ona tili darsliklari mashq va topshiriqlarining mazmun-mohiyati ham o'quvchilarni shu maqsadga tomon yo'naltirilishi talab etiladi. O'quv lug'atlari maktab ona tili dasturi talablari bilan chambarchas bog'liq ekan, ularni ta'lim jarayonining ajralmas qismi – "ikkinchi ona tili darsligi" sifatida qabul qilish mumkin.

Umuman olganda, ona tili darslarida kreativ tafakkurini rivojlantiruvchi matnlarni shakllantirish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

ona tili darslarini an'anaviylik qolipidan olib chiqish va o'quvchilarni hozirgi muloqot jarayoni bilan bog'liq holda til ilmlarini pragmatik asosda o'rgatishga yondashish;

ta'lim jarayoni uchun kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi matnlarning mavzu ko'lami va mundarijasini belgilash;

tilimizning milliy tabiatidan kelib chiqib, kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi matnlarni yaratish;

dars jarayonini tashkil etishda kommunikativ-pragmatik yondashuvlarga asoslanib, matnlarning diskursiv tahliliga yo'l ochish.



Hozirda ona tili darslarida yoki darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarning lug'atlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, fan dasturi mavzulari asosida turli o'quv lug'atlari bilan muntazam ishlab borish texnologiyasini yaratish maktab muallimining birlamchi vazifasi hisoblanadi.

Alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim jarayonida yozma savodxonlikni oshirish muhim masala bo'lib turibdi. Buning uchun esa quyidagilarga alohida e'tibor berib borish lozim bo'ladi:

- dars jarayonida, asosan, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq boyligini oshiruvchi matnlar bilan ishlashni yo'lga qo'yish;
- o'quvchilarga didaktik mazmundagi qator badiiy asarlarni yoshi va saviyasiga mos ravishda tizimli va tartibli holatda o'qitib borish;
- yozma ish turlari boy'icha o'quvchilarni uzluksiz tayyorlab borish;
- dars jarayonida tilimizdagi o'z va o'zlasma (arabcha, forscha, ruscha, inglizcha va boshqa tillardan o'zlashgan) so'zlar izohi va imlosi bilan tanishtirib borish;
- o'quvchilarga matnlardagi tushunilishi va yozilishi murakkab so'zlar lug'atini tuzdirib o'rgatishdan iborat.

Ona tili darsliklarida o'quvchilar ijodkorligini oshiruvchi mashqlarning berilishi ham dolzarb masala hisoblanadi. Zeroki, o'quvchilar uchun grammatik qoida va ular bilan bog'liq mashqlarga qaraganda ko'proq ularning ijodkorligini oshiruvchi mashqlar bilan ishlash jarayoni samarali bo'ladi. Aniqrog'i ularning fan yoki muayyan mavzu haqidagi tasavvurini kengaytirish, mavzularni o'zlashtirishda yaxshi natija beradi. Hozirgi maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari darsliklarida ona tili ta'limida bu kabi mashqlarni ko'paytirish zarur bo'ladi. Shuningdek, bu o'qituvchining zamonaviy pedagogik texnologiyadagi mahorati bilan ham bog'liq bo'lib, ulardan o'z o'rnida shu kabi mashqlarni dars jarayoniga tatbiq etib borishlari talab etiladi.

Shu o'rinda akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan hozirgi o'zbek adabiy tili darsligi (Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. -T.: Ilm ziyo, 2016)dagi 48-mashqqa e'tibor qaratamiz.

**O'qing. Alisher Navoiy gulni qanday ifodalaganiga e'tibor bering. Gul va giyohlarning leksik ma'nosini izohlang.**

*Gul va Navoiy navosi*

*Alisher Navoiy o'z asarlarida gul, uning vazifasini o'taydigan giyoh va o'simliklar, gulga aloqador ashyolar, shuningdek, mavjudotlarning juda ko'pidan va xilma-xillaridan keng foydalanadi. Shu bilan bir vaqtda ulug' shoir o'z maqsadlarni ifodalashda gul va gulistonlardan ayrim g'azallarining ba'zi baytlaridagina foydalanib qo'ya qolmay, balki o'nlab g'azallarini butun-butunligicha ana shunday ifodalashga bag'ishlaydi. Ularda o'nlab xildagi gullar: nasrin, nastarin, nargis, nilufar, savsan, rayhon, xino, zanboq guli, lola, sadbarg, ra'no, hazorg'uncha, zag'far, sumanpar; yoqimli hidi va go'zal ko'rinishi bilan gulni eslatuvchi giyohlar: sunbul, ishqi pechan; manzarali daraxtlar: sarv, ar-ar, arg'uvon, shamshod kabilar haqida ma'lumot beradi. Ya'ni: guloroy – gul bilan bezangan, gulrez – gul to'kuvchi, gulpo'sh – gul yopingan, qip-qizil gulday kiyingan, gulbang – yoqimli ovoz, bulbul ovozi, guldastaband – majozan quyosh nurlari kabi iboralar Navoiy asarlarining mazmunini ochib berishda mislsiz zo'r xizmat qiladi.*



*Shuningdek, yuqorida aytib o'tilgan iboralarning aksariyatini ulug' Navoiy sinonimiya vositasida turli variantlarda ishlatgan: gul, chechak, vard, shugufa kabi. Shu bilan birga, gulga oid ko'pchilik iboralardan omonimiya yordamida turli ma'nolar hosil qilgan: gul (chechak), gul (bezak), gul (yashnamoq), gul (mahbuba), gul (go'dak), gul (umuman inson), gul (qizamiq) singari.*

*Buyuk shoirning asarlarida gul tushunchasidan foydalanish ko'lami katta va keng...*

Ma'limki, hazrati Alisher Navoiy ijodiyoti go'zalligi cheksiz va benazir. Darslik mualliflar keltirgan mo'jazgina matnda adibning adabiy merosi ustida til ilmi nuqtayi nazaridan kichkina ilmiy tadqiqot o'tkazilgani o'quvchilarga ma'lum bo'ladi. Ya'ni adib ijodidagi *gul, giyoh, o'simlik va gulga aloqador ashyolar* alohida turlar ajratib o'rganilgan hamda ulardagi ma'nodoshlik, omonimlik, shu so'z bilan bog'liq so'z yasalishi yoko iboralar ko'rsatib berilgan. Mashqda 14 turdagi *gul* nomi, 2 turdagi yoqimli hidi va go'zal ko'rinishi bilan *gul*ni eslatuvchi giyoh nomi, *gul* so'zi bilan bog'liq 6 ta ibora, shuningdek, adib ijodida qo'llangan, tilimiz xazinasidan joy olgan *gul* so'zining yana 3 ma'nodoshi, bundan tashqari, shoir ijodida qo'llangan *gul* so'zining 7 ta shakldoshi bilan o'quvchilar tanishadi. Bu ma'lumotlar o'quvchilarning ona tili fanida olgan nazariy bilimlarini adabiyot fanida amaliyotga qo'llash uchun imkonoyat yaratadi. Bu kabi mashqlarning berilishi o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, mumtoz adabiyotga qiziqtirish, tilimiz xazinasidagi so'zlarni puxta o'rganish, o'quvchilarni turli lug'atlar bilan ishlash, shu asosda yozma savodxonlikni oshirishga ham ko'mak beradi.

Nullas, ona tili darslari samaradorligi doimiy muhim masala bo'lsa-da, unga har bir davr nuqtayi nazaridan, jamiyatdagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda yondashib, o'quvchilarning shu kundagi qarashlari va qiziqishlarini inobatga olib, qadriyatlarimiz, milliy mintalitetimizga mos ravishda dars tashkil etish lozim bo'ladi.

## References:

1. Nurullayeva Sh. Pedagogik mahorat kursidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi. Qarshi. Nasaf, 2011. 76 bet.
2. Hojiyev A. O'zbek tilshunosligi atamalarining izohli lug'ati. - T.: O'qituvchi, 2001 - 120 b.
3. Jamolxonov. N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: O'qituvchi, 2005. Darslik. O'z. R OTV tasdiq.
4. Jabborov E. O'zbek tili o'qitish metodikasi o'quv uslubiy qo'llanma. Nasaf, 2008. 120 bet.
5. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. -T.: Tasvir, 2014. - 128 b.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va b. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. -T.: Ma'naviyat, 2011. - 224 b.
7. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. -T.: Tasvir, 2013. - 208 b.